# UMUMTA’LIM MAKTAB DARSLIKLARIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR HAYOTI VA IJODINING O‘RGANILISHI

Qashqadaryo vil. Koson tumani

4-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

o‘qituvchisi **Sultanova Latofat**

**Annotatsiya** “…Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma‘rifatli, aynipaytda o‘zining o‘tmishi, ulug‘ qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan vakelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak”ligini har birmurabbiy chin yurakdan his qilmog‘i lozim. Buni o‘quvchi-yoshlarga tez va oson yetib borishini ta‘minlashda esa, bizga adabiyot fani yordamga keladi. Chunki, adabiyotning bosh vazifasi ham tarbiyalashdir. O‘z shaxsiyati va asarlari bilan insonlarga ibrat bo‘la oladigan, ularga ma‘rifat nuri ulashadigan buyuk siymolarning hayoti va faoliyatini o‘rganishimizning ham asl mohiyati shunda.

“Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish uning dunyoqarashinianiqlashga yordam beradi. Bu esa unga to‘g‘ri baho berish uchun zamin hozirlaydi”. Ba‘zan yozuvchi va shoirlarning hayotini o‘rganish shart emas, degan qarashlarga ham duch kelamiz. Holbuki, adib-u shoirlar hayotiga oid faktlarnito‘plash ilmning chinakam “qora ishi” sifatida baholanishi kerak. Sababi, bu xil ishlar konkret ijodkorning shaxs va san‘atkor sifatidagi tadrijini kuzatish yoki konkret asarning ijodiy tarixini to‘g‘ri talqin qilish uchungina emas, ijod psixologiyasi, ijodkor va jamiyat munosabati kabi qator umumestetik muammolarni yoritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Adib hayotiga oid ma‘lumotlar o‘zi yozib qoldirgan tarjimayi hollardan, adib haqida aytilgan zamondoshlar, uning tengdoshlari, ustozlari yoki shogirdlari, tanish-bilishlari va muxlislari tomonidan aytilgan yoki yozma holida yetib kelgan manbalardan olinishimumkin.

Aql-zakovati va salohiyati bilan butun dunyoni lol qoldirgan Zahiriddin Muhammad Bobur aynan namuna qilib ko‘rsatishga arzigulik shaxs edi. Shuning uchun umumta‘lim maktablarining 5-, 9-sinf o‘quvchilari va o‘rta maxsus ta‘limning 2-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan darsliklarda shoh va shoir Boburning hayot yo‘li, ijodiy merosi atroflicha bayon qilingan. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari e‘tiborga olingan holda, darsliklardagi ma‘lumotlar izchillik bilan soddalikdan murakkablikka, mavhumlikdan aniqlikka tomon siljib boradi. Bu xususiyatni aniqroq ko‘rsatib berish uchun darsliklarga murojaatqilamiz:

**5-sinf adabiyot darsligidagi ma’lumotlar**

Zahiriddin Muhammad Bobur ham shoh, ham shoirdir. —Bobur so‘zi arab tilida — sher degani. Chindan ham u bu nomga munosib shaxsiyat edi. U tariximizning murakkab bir davrida yashadi. Qudratli temuriylar saltanati yemirilib, o‘rniga shayboniylar kelayotgan davr edi. Yurt jang-u jadallar ichida qolgandi. Shunday bir paytda o‘z yurtiga sig‘ magan temuriyzoda Bobur Hindistgtonga bosh olib ketdi. U yerda buyuk saltanat o‘rnatdi. O‘z jasorati va adolati bilan olis hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi. Boburning avlodlari hind diyorida uch yuz yildan ortiqroq hukmronlik qildilar. Zahiriddin Muhammad Bobur iste‘dodli shoir edi. U go‘zal g‘ azallar yozdi. Ruboiyning tengsiz namunalarini yaratdi. Ko‘rgan-kechirgan voqealari haqida “Boburnoma” asarini yozib qoldirdi. Uning qalbi musiqaga oshno edi. U so‘zni go‘zal chalgan,

ajoyib kuylar yaratgan, musiqa haqida ilmiy kitob yozgan shohlardan edi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug‘ildi. Otasi temuriyzoda Umarshayx Farg‘ona viloyati hukmdori edi. Onasi Qutlug‘ Nigorxonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. Bo‘lajak shoir 12 yoshida otasi bevaqt vafot etib, Andijonni boshqarish uning zimmasiga tushadi. 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi. yoshida bu azim shaharni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Keyin ham ikki marotaba bu shaharni egallashga muvaffaq bo‘ldi. Lekin saqlab qolish Nasib etmadi. Samarqandni ham, Andijonni ham qo‘ldan berib goh otliq, goh yayov yurgan paytlari ham bo‘ldi. Nihoyat, 1503-yilda Jayhun (Amu)ni kechib, Xurosonga o‘tdi. Kobul va G‘ aznani qo‘lga kiritdi. So‘ng 1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanat o‘rnatdi. U 1530-yilning 26-dekabrida Agrada vafot etdi. Keyinroq uning hoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi. 5-sinf adabiyot darsligida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida qisman to‘xtalib o‘tilgan, xolos. Biz bu darslikdagi ma‘lumotni “ZahiriddinMuhammad Bobur hayotiga kirish” deb baholashimiz mumkin. O‘qituvchi 5-sinf darsligida berilgan ma‘lumotlarni o‘quvchilarga quyidagi interaktiv metodlardan foydalanib mavzuni mustahkamlashni tavsiya etamiz. Quyidagi jadval orqali o‘quvchilarning xotirasida Boburning shoh sifatidagi, shaxs sifatidagi, shoir sifatidagi ma‘lumotlari to‘planadi va tavsiflanadi.

**Z.M.Bobur**

| Shoh sifatida | Shaxs sifatida | Shoir sifatida |
|---|---|---|
| Yosh bo‘lishiga qaramasdan adolatli hukmdor bo‘ladi. | Hind xalqi qalbidan joy oldi, uning mehrini qozondi. | Ikkita devoni mavjud. 119 ta g‘azali bor. |
| 15 yoshida bobomeros Samarqandni zabt etadi | Farzandlariga g‘amxo‘r ota. | 209 ta ruboiysi bitta masnaviy she’ri bor. |
| 1526-yilda esa Hindistonni zabt etib, katta saltanato‘rnatadi. | Uning qalbi musiqaga oshno edi. | 50dan ortiq muammo va 60dan ziyod fardlari aniqlangan |

**9-sinf adabiyot darsligidagi ma’lumotlar**

Bobur dunyoni hayratga solgan yirik davlat va madaniyat arbobi, mohir sarkarda, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimondir. Ayni paytda u adabiyotimizning Navoiydan keyingi zabardast vakili hisoblanadi. Hayot yo‘li. Bobur 1483-yil Farg‘ona viloyatining poytaxti Andijonda tug‘iladi. Otasi ushbu viloyat hokimi Umarshayx Mirzo Amir Temurga to‘rtinchi avlod – evara edi. Onasi Qutlug‘ Nigorxonimning otasi Yunusxon esa o‘n ikki avlod bilan Chingizxonga ulanardi. Ko‘rinadiki, Bobur insoniyat tarixidagi ikki buyuk sulola tutashgan nuqtada dunyoga kelgan jahonning eng mashhur kishilaridan biridir. Murakkab va ziddiyatli hayotio‘spirinlikdan to umrining oxirigacha jang-u jadallar, sarson-sargashtalik, zafar va mag‘lubiyat, ijod-u bunyodkorlik Ichida kechdi.

1494-yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning o‘z akasi – Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo hamda qaynog‘asi Toshkent hokimi Mahmudxon til biriktirgan holda qo‘shin tortib, Farg‘onaga yurish qiladilar. Nihoyatda qaltis vaziyat vujudga keladi. Buning ustiga kutilmagan

falokat yuz beradi: Andijonning g‘arb tomonidagi jar yoqasida bino bo‘lgan Axsi qo‘rg‘onida turgan Umarshayx Mirzo kabutarxonasi bilan jarga qulab, halok bo‘ladi. Umarshayxdan ucho‘g‘il va besh qiz qolgan edi. O‘g‘illarining kattasi - 12 yoshga qadam qo‘ygan Bobur taomil bo‘yicha taxtga o‘tiradi.o‘ratepa, Xo‘jand va Marg‘ilonni qo‘lga kiritib, Quvaga kirgan Sulton Ahmad qo‘shni shaharni kesib o‘tuvchi Qorasuv ko‘prigida toshqinga uchrab, tuya va otlari botqoq suvga cho‘klib, ko‘pi nobud bo‘ladi. Ustiga ustak o‘lat tarqaladi. Qo‘shin vahimaga tushadi. Sulton Ahmad sulh tuzib, ortga qaytadi va yo‘lda vafot etadi. Sulton Mahmud ham Axsini bir muddat qamal qilib ololmay, ketishga majbur bo‘ladi. Sharoitdan foydalanib qolmoqchi bo‘lgan Koshg‘ar va Xo‘tan hokimi Abobakr Do‘g‘latning O‘zgand yaqinidagi harakatlariga chek qo‘yiladi. “Boburnoma” ning aynan shu voqealarga ishora qilib “Tengri taoloning inoyati…” so‘zlari bilan boshlanishi bejiz emas edi. Bobur 1497-yili 15 yoshida sohibqiron Amir Temur poytaxt qilgan Samarqand shahrini egallaydi. Lekin moddiy tanqislik, qaltis siyosiy vaziyat tufayli bu shahri azimni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. Andijonda xiyonat yuz bergandi. Bobur ishongan beklar taxtga ukasi Jahongir mirzonio‘tqazmoqchi bo‘ladilar. Ikki yil sargardonlikdan so‘ng katta mashaqqatlar bilan Andijon qaytarib olinadi. 1500-yilda Bobur Samarqandni jangsiz osonlik bilan qo‘lga kiritadi. Lekin Shayboniyxon yaqinlashib kelayotganligi uchun kuch to‘plash maqsaadida Shahrisabzga jo‘naydi. Shunda Shayboniyxon Sulton Ali mirzoning onasi Zuhrabegimni unga uylanish va‘dasi bilan aldab, shaharni egallaydi.

1501-yilda Bobur 240 nafar navkari bilan yetti mingga yaqin qo‘shini bo‘lgan tajribali shoh Shayboniydan Samarqandni tortib olishga muvaffaq bo‘ladi. Ko‘po‘tmay Shayboniyxon shaharni qamal qildi va u uzoq davom etdi. Bir tomondan shahar ichidagi ochlik, ikkinchi tomondan qarindoshlari bo‘lmish boshqa temuriylardan madad kelmagani yosh hukmdorni og‘ir bo‘lsa-da, bir qarorga kelishga undadi. U yana Samarqandni tashlab ketishga, nafaqat Samarqandni, jondan aziz Vatanini ham butunlay tark etishga majbur bo‘ldi. Ikki yilga yaqin sarsonsargardonlikdan so‘ng 1503-yilda Kobulga yo‘l oladi. Kobul va G‘aznani jangsiz egallaydi vao‘zini shoh deb e‘lon qiladi. 1507-yildan Hindistonni zabt etishharakatiga tushgan Bobur 1526-yilio‘z maqsadiga yetadi. Shu yilning 21-aprelida Panipat jangida Boburning 12 minglik qo‘shini hind sultoni Ibrohim Lo‘diyning 100ming kishilik askari bilan to‘qnashadi. Ajdodlaridan meros jang sirlari, yillar davomida to‘plagan tajribasi hamda taqdirning bergan achchiq saboqlari qo‘l keldi. Bobur hind yerida Yevropada keyinchalik “Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi” deb atalgan ulkan saltanatga asos soldi. Bobur va boburiylarning hukmdorligi Hindiston tarixida juda katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

Bobur Hindistondagi din-mazhab janjallarini oldini olishga, mamlakatda osoyishtalik qaror toptirishga urindi. Adolatli qonunlar chiqardi, g‘ayridinlik solig‘I (juz‘ya)ni bekor qildi,o‘lgan erning tirik xotinini murda bilan birga yoqishni ta‘qiqladi. Mamlakatda obodonchilik ishlarini yo‘lga qo‘ydi, Shuningdek, hind yerida hali hech bo‘lmagan bog‘lar bino qildi. Movarounnahrning shirin-sharbat mevalarini ekdirdi. Lekin jang-u jadallar, saltanat tashvishlari, ayniqsa, Vatan sog‘inchi nozik qalb egasi bo‘lgan shoirning sog‘ligiga salbiy ta‘sir qildi. Begona bir yurtni zabt etish hech qachon oson kechmagan. 1526-yilning 21- dekabrida Bobur dushmanlari tomonidan zaharlanib, tasodif tufayli omon qoladi. Biroq bu ahvol yigirma besh-yigirma olti kun davom etadi, xolos. Bobur 1530- yilning 26-dekabrida Agrada vafot etadi. Keyin uning xoki, vasiyatiga muvofiq, Kobulga ko‘chiriladi. 9-sinf adabiyot darsligida Boburning hayoti ba ijodiga oid ma‘lumotlar kengroq berilgan. Ma‘lumotlarni va vaqtni hisobga olgan holda darsda quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga movofiq.

**“Chala xat matni”** metodi.

Bu metoddan o‘quvchilarning nazariy ma‘lumotlarini mustahkamlashda foydalanamiz. Bu metod uchun aynan bir matn tanlab olinadi. Biz mavzudan kelib chiqqan holda memuar asar haqida berilgan nazariy matnni tanladik .o‘quvchilar matn ichidagi bo‘sh joylarga kerakli so‘zlarni qo‘yib jumlalarni to‘ldiradilar. Bu metodo‘quvchilarni zukkoligini, topqirligini, hozirjavobligini sinovdan o‘tqazadi. O‘qituvchi berilgan ma‘lumotlarni tinglagandan so‘ng o‘quvchilarning nazariy bilimlarini yanada boyitadi.

**MEMUAR ASAR**

"Memuar" fransuzcha ……. ma'nosini anglatadi. Muallifning o'zi qatnashgan yoki ko'zi bilan ko'rgan …….. haqida hikoya qilingan asar memuar asar hisoblanadi. ……..…."Bolalik", A. Qahhorning ……asarlari memuarning namunalaridir. Memuar asarlarga xos asosiy qirra shundaki, unda ……. ishtirokchi yoxud tonig' (guvoh) sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi. U tarixchi va adabiyotshunos olimdan farq qilib, real voqelikning o'zi bevosita qatnashgan yoinki ko'rgan qisminigina aks ettiradi. Bunda muallif o'z kuzatish va dunyoqarashigagina tayanadi. Shuning uchun ham …… asarda yo hikoyachining o'zi yo bo'Imasa, uning nuqtai nazari old o'rinda boiadi. Bu holni "Boburnoma" misolida yaqqol ko'rish mumkin.

**MEMUAR ASAR**

"Memuar" fransuzcha "esdalik" ma'nosini anglatadi. Muallifning o'zi qatnashgan yoki ko'zi bilan ko'rgan real voqealar haqida hikoya qilingan asar memuar asar hisoblanadi. Oybekning "Bolalik", A. Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" asarlari memuarning namunalaridir. Memuar asarlarga xos asosiy qirra shundaki, unda muallif ishtirokchi yoxud tonig' (guvoh) sifatida tasvirlanayotgan voqealar markazida turadi. U tarixchi va adabiyotshunos olimdan farq qilib, real voqelikning o'zi bevosita qatnashgan yoinki ko'rgan qisminigina aks ettiradi. Bunda muallif o'z kuza-tish va dunyoqarashigagina tayanadi. Shuning uchun ham memuar asarda yo hikoyachining o'zi yo bo'Imasa, uning nuqtai nazari old o'rinda boiadi. Bu holni "Boburnoma" misolida yaqqol ko'rish mumkin.

**“Jumlalarni davom ettiring”** metodi. Bu metodda o‘quvchilarga jumlalarni davom ettirish uchun kalit so‘zlar beriladi. O‘quvchilar esa shu kalit so‘zlardan foydalanib jumlalarni davom ettiradilar.

*1. Husayn Boyqaroning valodat va nasabi……..*

2. *Husayn Boyqaroning shakl-u shamoyili……*

*3. Husayn Boyqaroning axloq va atvoqi……*

*4. Husayn Boyqaro Shujo va mardona kishi edi……..*

*1-o‘quvchi* Valodat va nasabi. Valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hirida Shohruhmirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur… Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo‘lur edi. Sulton Husayn mirzo karimuttarafayn (ikki taraflama ulug‘) edi…

*2-o‘quvchi* Shakl-u shamoyili: qiyiq ko‘zluk, sher andom (qomat) bo‘yluq kishi edi. Belidin quyi inchka (ingichka) edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh yashab, oq soqolliq bo‘lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni (ipak) kiyar edi. Qora qo‘zi bo‘rk (telpak) kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech (uch o‘ram) dastorni (salla) yap-yassi yomon chirmon (o‘ralgan) chirmab, qarqaro o‘tag‘asi (podsholi jig‘asi) sanchib, nomozg‘a borur erdi.

*3-o‘quvchi* Axloq va atvoqi: Mafosil (bod kasalligi) zahmati jihatidin namoz qila olms edi, ro‘za ham tutmas edi. Harrof (chechan) va xushxulq kishi edi. Ba’zi muomalotta (muomala) sharni (shariat) bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o‘g‘li bir kishini o‘ldurgani uchun qonliqlarig‘a topshurub, dorulqazog‘a (qozixona) yibordi…

*4-o‘quvchi* Shujo va mardona kishi edi… Temurbekning naslidin ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzovha qilich chopmish bo‘lg‘ay. Ta’bi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi “Husayniy” edi…

*O‘qituvchi*: Ko‘rinib turibdiki, Bobur Husayn Boyqaroning shunchaki ta‘riftaavsifini berib ketmaydi, balki uning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori va nasl-nasabi haqida ham ishonchli ma‘lumotlarni beradi.

Akademik litsey darsligining II qismida Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodidan bir mavzu oldin (Husayn Booyqaro→Muhammad Solih→Bobur) Husayniy ijodidan lavhalar keltiriladi. Unda “Risola” asari va g‘azallaridan namunalar keltiriladi, xolos. Yuqoridagi parcha orqali esa o‘quvchilar Husayn Boyqaro haqida keng va atroflicha ma‘lumot oladilar.

“Boburnoma”da Alisher Navoy, Abdurahmon Jomiy, Behzod kabi ko‘plab yirik ijodkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatiga xolis baho beriladi. Masalan, Bobur Alisher Navoiy haqida so‘zlaganda uni “Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bilan to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqonemas”, deb ta‘riflaydi va fan-madaniyat homiysi ekanligi alohida ta‘kidlanadi.

“ Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad edilar, bekning tarbiyat va taqviyati bila muncha tarqqiy va shuhrat qildilar.. Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘ay…”

Darslikda aynan Navoiy haqidagi parchaning berilishida ma‘lum sabab bor. Chunki o‘quchilar Alisher Navoiy haqida ancha ma‘lumotlarga ega bo‘lib, “Boburnoma”dagi matnni uqib olishga uncha qiynalmaydilar. Har bir asarni o‘rganishdan va o‘rgatishdan oldin asarning yaratilish davriga va asar tiliga alohida e‘tibor qaratmoq lozim. “Boburnoma” asarida ham bugungi kun o‘quvchilari tilda tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar uchraydi. Quyida keltirilgan metod orqali o‘quvchilar asardagi so‘zlar lug_atini oson eslab qoladilar va tushunib oladilar.

**“Ikki tomonlama kundalik” metodi.** Bu metodda ikki qisimdan iborat bo‘lgan jadval tuziladi. Jadvalning birinchi qismiga “Boburnoma” asaridagi o‘quvchilarga notanish bo‘lgan so‘zlar yoziladi. Ikkinchi qismi ochiq qoldiriladi O‘quvchilar esa ochiq qolgan qismga shu so‘zning bugungi kundagi ma‘nosini topib yozadilar va izohlaydilar. O‘qituvchi esa javoblarni tinglab natijalarni to‘plab boradi

Bu metod o‘quvchilarga asar tilini yushunishga kata yordam beradi. O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida “Boburnoma” asaridagi notanish so‘zlar lug‗ati hosil bo‘ladi.

| **l qism** | **ll qism** |
|---|---|
| Garm | qizg'in |
| Noz-u naam | noz-ne'matlar |
| Ma'mura | ekin bitadigan obod yer |
| Voqe bo'lubtur | joylashgan, o'rnashgan |
| Kanora | qirg'oq |
| Muxtasar | ixcham, kichik |
| Shohroh | katta yo'l |

Biz darsliklarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari e‘tiborga olinganligini darsliklarning yutug‘i deb baholaymiz. Chunki 5-sinf darsligida berilgan ma‘lumot keyingi darsliklarda takrorlanmaydi, balki to‘ldiriladi. 5-sinf o‘quvchilarini zeriktirib qo‘ymaslik uchun berilmagan tarixiy sanalar va asarlarining nomlari yuqori sinflar uchun mo‘ljallangan darslikda beriladi. Buning asosiy sababi esa o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyati shakllanib bo‘lganligida. Agar Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti haqida so‘z yuritganda shunchaki hikoya tarzidagi ma‘lumot berishdan cheklanib, uning zamondoshlari, shogirdlari yoki yozuvchi va shoirlar tomonidan berilgan fikrlar ham darsliklardan o‘rin olganda edi,maqvadga muvofiq bo‘lar edi.

Xullas, badiiy adabiyot qaysi janr va mavzularda yozilmasin, undan kutilgan asosiy maqsad insonni tarbiyalashdir. Shu jihatdan qaraganda, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi o‘ziga xos axloqiy-ta‘limiy, ma‘naviy ma‘rifiy ahamiyatga ega. Bu asarlarning umumiy ruhi insonni komillik ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T.: O‘zbekiston. 2017.

2. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik). II qism. – T.: Sharq. 2011-yil.

3. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik). – T.: Yangi yo‘l poligrapf service. 2010.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: Yulduzcha. 1989.